

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING BOSHQARUVINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIYASI

Muzapparova Laziza Shuxratovna

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani

18- DMTT direktori

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif tashkilotlarining boshqaruvini shakllantirishning metodologiyasi haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *menejment, texnologik yondashuv, pedagogik tizim, kompitensiylar, strategik boshqaruv, boshqaruv masalalari, ta'lif boshqaruvi, xodimlar.*

Аннотация: В данной статье рассказывается о методике формирования руководства дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова: менеджмент, технологический подход, педагогическая система, компетенции, стратегическое управление, вопросы управления, образовательный менеджмент, работники.

Abstract: This article talks about the methodology of forming the management of preschool educational organizations.

Key words: management, technological approach, pedagogical system, competencies, strategic management, management issues, educational management, employees.

Uzluksiz ta'lif tizimi boshqaruvini takomillashtirishda ta'lif tizim elementlari, ularning o'zaro aloqasi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish holatlari shuni ko'rsatdiki, bugungi kunga qadar ta'lif tizimini boshqarish sohasida bir qator fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ular mazkur sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi "Maktabgacha ta'lif tashkilotlarining raxbarlariga zaruriy kasbiy kompitensiylar ro'yxatini o'z ichiga olgan talablarni belgilash...., strategik boshqaruv, moliyaviy va HR-menejment asoslarini majburiy joriy etgan holda, maktabgacha ta'lif tizimida boshqaruv kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish" kabi vazifalar belgilangan. Bugungi kunda xorijiy davlatlar ta'lif tizimida boshqaruv masalalari ta'lif muammolarini tadqiq qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan va ushbu yo'nalishida tadqiqotlar olib borilishining boshlang'ich urinishlari XX asrning boshlariga kelib taqaladi.

Ta'lim boshqaruvi masalalari, undagi muammolar yechimi va uni takomillashtirish mexanizm va modellari turli fan sohalari negizida olib borilganligini ko'rish mumkin. Xozirda ta'lim boshqaruvi muammolari iqtisodiyot, siyosatshunoslik, sotsiologiya, kibernetika, pedagogik nazariya, psixologiya kabi fan soxalarining tadqiqot ob'ektiga aylangan.

Shuningdek, A.Fayol, "ma'muriy boshqaruv" maktabi asoschisi, 1917 yilda e'lon kilgan "Administration Industrielle et Generale" asari bilan ta'lim boshqaruvi muammolari yechimiga uzining jiddiy ta'sirini o'tkazdi. Keyingi yillarda ta'limni boshqarishda ilmiy boshqaruv tamoyillaridan foydalanish asosan AQSh, Kanada, Angliya, Shvesiya, Fransiya, Germaniya kabi davlarda keng yo'lga kuyildi. Lekin, ularning ichida Shvesiya ta'lim tizimi boshqaruvida davlatning aralashuvi darajasi uta yuqoriligi bilan ajralib turdi.

A.Fayol asos solgan mazkur maktab vakillari tomonidan boshqaruvning universal tamoyillari ishlab chikilgan bulib, bunda birinchi kategoriya boshqaruv usulida maqsad va vazifalarni belgilash, resurslar ta'minoti va taksimoti, nazorat, ishlab chiqarishni rejalashtirish, molil v a marketing masalalari boshqaruv ierarxiyaisining eng yukori bo'g'ini tomonidan amalga oshiriladi. Ikkinchi kategoriyada esa tashkilot faoliyatiga doyr yuqorida sanab utilgan boshqaruv funksiyalari tashkilot boshqaruv ierarxiyaisining eng yuqori bugini tomonidan emas, balki tashkilot xodimlari tomonidan mustakdl ravishda amalga oshiriladi. Ko'plab G'arb davlatlarining ta'limni boshqaruv modelida aynan mana shu ikkita kategoriyaning xdr biridan foydalanib kelinishini kuzatish mumkin.

Lekin, oxirgi yillarda ta'lim boshqaruvida insoniy munosabatlarga asoslangan tamoyillar orqali boshqaruvni amalga oshirish ta'limni boshqarishda eng samarali tamoyillarning biri sifatida qaralmokda. Mazkur boshqaruv nazariyasi maktabi vakillari asosan psixologiya fani mutaxassislari bulib, u boshqaruvda yuqori samaradorlikka erishish sifatida kuyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ⊕ boshqaruvchi o'z qo'l ostidagi xodimlarni ruhan qo'llab-quvvatlash, ularga bo'lgan to'la ishonchni namoyish etish,
- ⊕ xodimlarning o'z-o'zini yo'naltirish va nazorat qilish,
- ⊕ ularni mehnat faoliyati natijalariga ko'ra rag'batlantirib borish, xodimlarning ijodiy va intellektual imkoniyatlaridan keng foydalanish.

Bo'lajak raxbarlar tayyorgarligining mazmunini integrativ yondashuv asosida takomillashtirishda jarayoni metodologik, pedagogik, psixologik, texnologik yondashuv, muayyan pedagogik tizimidagi tegishli pedagogik nazariya, amaliy tadqiqot texnologiyalari tizimini tanlab olindi. Bularning barchasi ishlab chiqilgan maqsadli-konseptual, tuzilmaviy mazmundor, tizimli

pedagogika, izchil, axborot tizimlashtirilgan, metodik jihatdan mukammal, pedagogik jihatdan tadriiy, kasbiy va shaxsiy yo'naltirilgan, maktabgacha ta'lim tashkilotida maktabgacha pedagogika nazariyaning amaliyat bilan mustahkam aloqasida namoyon bo'ladi.

Kishilarning bilimi rahbar kasbiy vakolatining ko'rsatkichidir: Rahbarlar nutqida ko'pincha «inson», «shaxs», «individuallik» kabi so'zlar tez-tez uchrab turadi. Inson ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo'shilganda va mustaqil faoliyat uchun arzigulik ijtimoiy sifatga ega bo'lganda shaxs bo'lib qaror topadi. O'z extiyojini kondirishga intilib shaxs turli mehnat va ijtimoiy faoliyat sohasiga kirib boradi. Bunda shaxsning extiyoji rang barangdir. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- biologik extiyoj: oziq-ovqat, havo, kiyim-kechak, harakat va h.k.larga bo'lgan talab;
- ijtimoiy extiyoj: ijtimoiy faollik, shaxsning jamiyatda o'z o'rnini izlashi va h.k;
- ma'naviy extiyoj: tashqi dunyoni idrok etish, axborotlar (ilmiy, ahloqiy, mafkuraviy va boshqalar).

Avram Maslou bo'yicha extiyojlar darajasi quyidagicha: fiziologik, havfsizlik va muxofaza, tegishlilik va sevgi, o'z-o'zini qadrlash, o'z-o'zini faollashtirish (o'z-o'zini anglash).

Xodimlarning axloqiy yuksakligi zamonaviy rahbarning boshqaruv faoliyatining muhim sifat kursatgichi hisoblanadi. Bunga erishish uchun, avvalo, rahbarning ijtimoiy -odobi tayyorganrligi (nazariy va amaliy) zarur. Ana shu maqsadda boshqaruv odobi tuziladi. Uning mohiyati ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning barcha ishtirokchilarining xulq-atvori tamoyil va me'yorlarini asoslashdir, xizmat huquq va majburiyatiga kasb burchi sifatida munosabatda bulish zaarurligidadir.

Xulosa kilib shuni aytish mumkinki, boshqaruv odobi ma'muriy va xo'jalik faoliyatini sifatli ado etishga yo'naltirilgan nazariy-amaliy etika bilimlari va amaliy tavsiyalari tizimidan iboratdir. Ijtimoiyadolat, shaxs erkinligi, kasbiy pokizalik, mas'suliyatni xis etish, tabiatni asrab-avaylash uning asosiy tamoyillari hisoblanadi. Boshqaruv odobida axloqiy tavsiyadagi shaxs xulq-atvorini o'rganish bilan bog'liq me'yoriy hujjatlar, boshqaruv faoliyatiga bo'lgan axloqiy talablar, ishga aloqador etika qoidalari ishlanmalarini va menejerning xizmatdan tashqari xulqi, muomala odobi bo'yicha maslahatlar to'plamlari muxim o'rinni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'limga tizimini takomillashtirishga karatilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida. 08.08.2018 y. PQ-3904.
2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.
3. Gaynazarova G.A. Maktabgacha ta'limga muassassasi tarbiyachilarida pedagogik maxoratni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari. Maktabgacha ta'limga. Jurnal. 2017. №4.
4. Azizzodjayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. T.: TDPU 2003. 175 b.
5. Abdullayeva X.A. Mashg'ulotlarda faol ta'limga usullaridan foydalanish. – Farg'ona: FarDU, 2008.
6. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob:- Toshkent, "Ilm-Ziyo" nashriyoti. 2012.
7. . www.tdpu.uz
8. www.pedagog.uz
9. [tdpu - INTRANET. ped.](http://tdpu-intranet.tdpu.uz)